


122. Qiymatga doir masalalar yechish

Yondosh mavzu:
pul tarixi.

Sxema, qiymat,
miqdor, narx.



1. Qadimda pul bo'lmagan. Odamlar o'z tovarlarini boshqa turdagi tovarlarga almashtirishgan. Masalan, bitta g'ozni 5 ta olмага almashtirishgan. Sxemadan foydalanib, qadimda odamlar
- 3 ta g'ozni olmalarga;
 - 6 ta g'ozni olmalarga
- almashtirishni qanday amalga oshirganliklarini tushuntirib bering.



2. Sotib olish yoki sotish – bu tovarlarni pulga almashtirish. Agar bitta g'oz 300 000 so'm tursa, bir nechta g'oz uchun qancha pul to'lash kerakligini bilib oling.


Miqdori, n	1	2	3	4	5	6	n
Qiymati, C							

Qiymatga doir masalalarda uchta kattalikka duch kelamiz.

Qiymat, odatda, C harfi bilan belgilanadi.

Miqdor, odatda, n harfi bilan belgilanadi.

Narx, odatda, p harfi bilan belgilanadi.



Qiymat formulasi:

$$C = p \cdot n$$

$$p = C : n$$

$$n = C : p$$

122. Qiymatga doir masalalar yechish



3. Qiymat formulasidan foydalanib, noma'lum kattaliklarni toping.

p	n	C
200 000 so'm/dona	15 dona	?
?	8m	160 000 so'm
12 000 so'm/kg	?	72 000 so'm



4. Qiymat formulasidan foydalanib, ifodalar yozing. Noma'lum kattaliklarni toping.

- Bir dona nargis guli 4 000 so'm turadi. 7 ta nargis gulidan iborat guldasta qancha turadi?
- Uchta dastro'moldan iborat to'plam 27 000 so'm turadi. Bitta dastro'mol qancha turadi?
- Bitta daftar 2 500 so'm, bir o'ram daftar esa 40 000 so'm turadi. Bir o'ramda nechta daftar bor?



5. Do'kondan mayka, ko'ylak va 3 juft paypoq xarid qilindi. Mayka 90 000 so'm, ko'ylak maykadan 20 000 so'm qimmat, bir juft paypoq esa 7 000 so'm turadi. Barcha xarid uchun qancha to'langan?



6. Ilgari turli xil qimmatbaho buyumlar pul vazifasini bajargan. Ifodalarni qulay usulda hisoblang va bu narsalar qaysi mamlakatlar yoki mintaqalarda pul vazifasini bajarganini bilib oling.



Kakao donachalari
 $734 + (922 + 266)$



Kauri chig'anoqlari
 $2704 - (115 + 604)$



Guruch
 $(1367 + 879) - 279$



Tuzlangan baliq
 $19 \cdot 5 \cdot 2 \cdot 10$


Yaponiya	Meksika	Afrika	Islandiya
1967	1922	1985	1900

122. Qiymatga doir masalalar yechish



7. Amallarni algoritm bo'yicha bajaring. Javoblarni o'sish tartibida joylashtiring. Bu yerda "belgi" yoki "imzo" ma'nosini bildiruvchi turkiy so'z yashiringan. Undan qaysi zamonaviy so'z kelib chiqqan?

x	67	56	32	97	45
y					
	T	A	A	G	N



8. Jasur, Akmal va Sardor "Do'kon" o'yinini o'ynashmoqda. O'yin to'plamida quyidagi qiymatdagi shartli tangalar mavjud:



Akmalda har bir turdagi tangalardan bittadan bor. U ushbu do'kondan quyida ko'rsatilgan istalgan turdagi tovarni sotib olishi mumkinligini isbotlang: super qahramonli kartalar – 17 tanga, stikerlar – 29 tanga, fonarchalar – 63 tanga.



9. Hisoblang. Pul ishlatmasdan tovarni tovarga almashtirish qanday ataladi?

A $3\,145 + 6\,335$

K $4\,178 + 5\,317$

E $66\,000 - 56\,119$

R $16\,630 - 7\,379$

B $88\,056 : 9$

T $78\,832 : 8$

9784	9480	9251	9854	9881	9251
------	------	------	------	------	------



10. Teatrga kirish chiptasi bolalar uchun 12000 so'm, kattalar uchun esa 23000 so'm. Spektaklga bolalar uchun 27 ta va kattalar uchun 12 ta chipta sotib olindi. Jami necha so'm to'lanishi kerak?